

TRANSFORMATSILOGIYA TILSHUNOSLIKNING TADQIQOT SOHALARIDAN BIRI SIFATIDA

Oybek Tohirov

O'zDSMI "Sahna nutqi" kafedrası katta o'qituvchisi

Orcid: 0009-0004-4900-2055

Annotatsiya. Transformatsiologiya – keng va tor ma'noda tushunish mumkin bo'lgan, zamonaviy fan tarmoqlarida faol qo'llanilayotgan termiin hisoblanadi. Bu termin dastlab ximiya fanida paydo bo'ldi va moddalarning tarkibiy o'zgarishga uchrash jarayonlarini tadqiq etishda qo'llanildi. Keyin boshqa fan tarmoqlarida ham tub va qisman o'zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini o'rganish maqsadida qo'llana boshlandi. Tilshunoslikda ilk marta Qirim davlat pedagogika instituti professori Migirin Viktor Nikolayevich o'zining "Evolyuviya pridatochnogo predlojeniya i raznie vidi transformatsii glavnogo i pridatochnogo predlojeniy v russkom yazike" nomli dissertatsion tadqiqotida qo'llagan. Maqolada Usmon Azimning "Tong otgan taraflarda" dostonining sahnalashtirilishida frazeologik birliklarning lingvotransformatsiyaga uchrash jarayoni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: transformatsiologiya, lingvotransformatsion jarayonlar, sahna asari, Usmon Azim.

Abstract. Transformatiology is a term that can be understood in a broad and narrow sense and is actively used in modern scientific fields. This term was first used in chemistry and was used to study the processes of structural changes in substances. Later, it began to be used in other scientific fields to study the causes of radical and partial changes. For the first time in linguistics, Professor Migirin Viktor Nikolaevich of the Crimean State Pedagogical Institute used it in his dissertation research entitled "Evolution of the subordinate clause and various types of transformation of the main and subordinate clauses in the Russian language". The article discusses the process of linguistic transformation of phraseological units in the staging of Usman Azim's epic poem "In the Lands of Dawn".

Keywords: Transformatiology, linguistic transformation processes, stage work, Usman Azim.

Transformatsiologiya atamasi zamonaviy fan tarmoqlarida faol qo'llanilayotgan termin hisoblanadi. Bu termin dastlab ximiya fanida paydo bo'ldi va moddalarning tarkibiy o'zgarishga uchrash jarayonlarini tadqiq etishda qo'llanildi. Keyin boshqa fan

tarmoqlarida ham tub va qisman o'zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini o'rganish maqsadida qo'llana boshlandi.¹ Tilshunoslikda til birliklarining muayyan maqsad va sharoitlarda o'zgarishga yuz tutishi hodisasiga nisbatan ishlatiladi. Bu jarayon bir badiiy asarning sahnalashtrilishida yoki boshqa bir tilga tarjimasida aniq ko'zga tashlanadi.

Tilshunos Sh.Safarov gapning tashqi tuzilishida namoyon bo'ladigan transformatsiyalarni undan kattaroq butunlik bo'lgan matn doirasida tadqiq qilish kerakligini shunday ta'kidlaydi: "Gap tarkibidagi bo'laklar tartibini aniqlash uchun sintaktik tahlilning o'zi yetarli. Gap tuzilishidagi har qanday o'zgarishlar (inversiya, ellipsis va boshqa shakliy o'zgarishlar) va ma'no ko'chishlarining (sintaktik polisemiya, omonimiya kabilar) turlari, ularning yuzaga kelish sabablarini yoritish maqsadidagi tahlil, so'zsiz, matn sintaksisi va pragmatikasi darajasiga ko'tariladi."²

M.Yo'ldoshev "Cho'lponning badiiy til mahorati" mavzusidagi dissertatsiyasida matndagi "**notob**" so'zining videofilmda "**betob**"ga o'zgarishi sabablari haqida ma'lumot berib o'tgan: "Romanda tasvirlanishicha, Akbarali mingboshining kenja xotini Sultonxon Zebining qo'shiqlarini tinglagach, bu ajoyib ovoz sohibasini xonadoniga taklif etadi. Biroq bu taklifi bilan u o'z boshiga ne-ne g'avg'olar sotib olayotganini avval bilmaydi. Mingboshi uchiga chiqqan xotinboz, u Zebining ovozini eshitsa, bu go'zal qizga sovchi qo'yishi mumkinligini Sultonxon keyin anglab qoladi. Endi bundan qutulishning yo'lini topish kerak. Sultonxon yo'l izlab, xonadonning yugurdagi Umrinisabibiga maslahat soladi: Kelinchak (Sultonxon) Umrinisabibining ko'zlariga bir oz tikilib turgach: - *Shu tobda onam notob bo'lib chaqirtirsa, xafa bo'lmas edim!* – dedi (41). Ushbu jumladagi holat ifodasida **notob** so'zining tanlanishi adibning so'z hassosiyatidan dalolat beradi. Bu so'zning o'rniga **betob** yoki **kasal** so'zini qo'llash mumkinmidi? Albatta, mumkin edi. Har uchala so'zda ifodalangan denotat bir xil, ya'ni ularning asosiy ma'nosida jiddiy farq yo'q. Ammo bu so'zlar bo'yoqdorligi, sub'ektiv munosabat ifodasi darajasi, qo'shimcha ma'no qirralariga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi. Jumlada qo'llangan **notob** so'zi **betob** va, ayniqsa, **kasal** so'ziga nisbatan yumshoqroq, hissiyroq, uning ma'nosida sub'ektning onaga bo'lgan ijobiy munosabati aniq ifodalangan. Shuning uchun ham **notob** so'zi so'zlovchining ruhiy holatiga ham, mavqei (farzandlik) ga ham muvofiq keladi. Sultonxonning «*onamga ozor yetmasmikin*» degan ma'nodagi botiniy andishi va ayni damdagi ilojsiz bir holati bu so'zga ko'ra juda chiroyli va aniq ifodalangan. Taassufki, «Kecha va kunduz» romani asosida ishlangan videofilmda mazkur epizodda

¹ Бу ҳақда қаранг: Цымбалюк Е.В. Модель «предлог-приставка» и теория межуровневой омонимии / Е.В. Цымбалюк // Мова I культура : науковий журнал. - К.: Видавничий дІм Дмитра Бураго, 2012. - Вип. 15.-Т. II (156).-С. 135-142.

² Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. -Б. 8-9.

betob soʻzi ishlatilgan. Natijada yozuvchi **notob** soʻzini qoʻllash orqali yuzaga keltirgan *yumshoqlik, andishalilik* kabi nozik maʼno qirralari yoʻqolgan.”³

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, badiiy asar yozuvchining ijodiy tafakkuri, badiiy niyati mahsuli boʻlib, uning sahna, ekran yoki boshqa shaklu shamoyillardagi taqdimidan farq qiladi. U asar shaklida yozuvchining dunyoqarashini, olam va odamni idrok etish tarzini ifodalaydi. Oʻsha asar asosida yaratilgan sahna yoki ekran asarlari esa rejissyor hamda ssenariynavislarning dunyoqarashi mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun asarning farqli formatlardagi generatsiyasi haqida gap ketganda uni oʻsha formatning oʻz ichida, yaxlit butunlik sifatida tahlil qilish lozim. Statik matn sahnada vizual matnga aylanadi. Endi u matn shaklidagi asliyati bilan bir narsa boʻlmaydi. Voqealar va qahramonlar jonlanganda rejissyor yoki ssenariynavis ham ularga mos harakat maydoni yaratadi. Asardagi muayyan transformatsiyalar aynan shu ehtiyoj bilan amalga oshirilganda, badiiy niyatga muvofiq boʻlganida oʻzini oqlaydi.

Mahkam Muhammedovning “Nigoh”⁴ (Toshkent, 2010. 21-b.) nomli risolasida Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanining ekranga koʻchirilishida yuz bergan lingvotransformatsion jarayonlarni shu tarzda izohlaydi: “Romanni oʻqib chiqsangiz, undagi birorta soʻzni olib tashlab boʻlmaydi. Qodiriy har bir soʻzni mohirona, zargarona qilib yozgan. Har bitta soʻz purmaʼnoga ega. Kitobda qanday berilgan boʻlsa, shunday qilib chiqarib bersam mendan baxtli odam yoʻq. Men bu yerda rejissura bunday boʻlishi kerak deya, harakat qilmayman. Masalan, soʻzlarni aktyorlarga tushuntirishga harakat qildim. Ammo bitta tomonini oʻzgartirdim. Yaʼni, Qodiriy bu asarni 28 yil davomida yozgan, asardagi qahramonlardan biri Abdurahmon dindor, u 15 yil Buxoro madrasasida tahsil olgan. U shuncha yillik tahsilga ega boʻlsada, “bachcha” boʻladi. Shu masjidida namoz oʻqib, kechalari toʻylarga chiqib “bachchalik” qiladi. Bularni Qodiriy asarida yozgan. Oʻsha paytlarda dinga qarshi siyosat shuni talab qilardi.” Demak bu asardagi lisoniy transformatsiyaga etnomadaniy omil asos boʻlgan. Yaʼni, aynan milliy-madaniy kodlar, dindor odam haqidagi tasavvurlar tufayli asarda tasvirlangan Abdurahmonning “bachcha”ligi haqidagi informatsiyalar ekranlashtirilish jarayonida atayin tushirilgan. Badiiy asardagi muayyan bir epizodning hatto soʻzning tushurilishi ham sahna yoki ekranlashtirilayotgan paytda tushirilishi ham transformatsion jarayon sifatida oʻrganiladi.

Usmon Azimning “Tong otgan taraflarda” deb nomlangan nasriy dramatik dostoni Oʻzbek Milliy akademik drama teatrida sahnaga qoʻyildi. Asarda millatimizning uzoq oʻtmishi, mamlakat tarixi, oʻzlik, eʼtiqod, ona-yurt, or-nomus kabi yuksak tuygʻular haqida soʻz boradi. Yosh rejissyor Asqar Xolmoʻminov sahnalashtirgan mazkur asar qahramonlarini Erkin Komilov, Lola Eltoeva, Gulnora

³ Юлдашев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романининг тили) Филол.фан.номз. ...дис. - Тошкент, 2000. -Б.23.

⁴ Muhammedov M. Nigoh. - Toshkent, 2010. -B.21.

Jumanazarova, Hamza Hasanov, Ixtiyor Otajonov va Saida Saidbekova kabi iste'dodli aktyor va aktrisalar ijro etganlar.

Har qanday asar sahnalashtirilganda uning tilida muayyan o'zgarishlar yuz beradi va bu g'oyat tabiiy hol. Bunday evrilishlar tilshunoslar tomonidan lingvotransformatsion jarayonlar tushunchasi doirasida o'rganilmoqda. Dramalarni sahnaga moslashtirish jarayonida matn faqat mazmun jihatdan emas balki gramatik, uslubiy va kommunikativ jihatdan ham qayta ishlanadi. Bunda asardagi sahnada ko'rsatish imkoni qiyin bo'lgan tasviriy ifodalar, muallif nutqi, qahramonlarning ichki monologlari sahna sharoitiga moslashtiriladi, ayrim gaplar soddalashtiriladi yoki qisqartiriladi. Sahnada til transformatsiyasi nafaqat verbal balki turli harakatlar, intonatsiya va vizual – noverbal vositalar bilan ham amalga oshiriladi. Matndagi ayrim til birliklarining tushirib qoldirilishi va ular o'rnini boshqa vositalar bilan kompensatsiya qilinishi kuzatiladi. Shu sababli dramaning sahnalashtirilish jarayonni oddiy o'zgartirish, qisqartirish yoki sahnada qayta tiklash deb emas, balki **kompleks** lingvotransformatsion jarayon sifatida baholash va tadqiq qilish lozim. Masalan, asosiy matndagi *“Holsizlikdan uyg'onib, to'lg'onib turipti. Qanotlaring uchish zavqini tuydi”* gapi asarning sahna talqinida mazkur birikmalar tushirilgan va gap shu tarzda transformatsiya qilingan. *“Qanotlaring uchish zavqini tuydi”* jumladagi holsizlikdan uyg'onib, to'lg'onib turipti birikmalarining tushurilishi ijro qulayligini yaratish maqsadida qilingan bo'lib tushirilgan birikmadagi ma'no *“Uchish zavqini tuymoq”* birikmasiga yuklangan ohangdan ham g'ozning uchishga tayyorligi manosi anglashiladi. Bu yerda sahna asarlariga qo'yiladigan ixchamlik semantik tejamlilik va zichlik tamoyillariga amal qilingani seziladi.

Usmon Azim qalamiga mansub yana bir asar *“Kunduzsiz kechalar”* – dramasi ham O'zbek milliy akademik drama teatrida 1997-yil ilk bor rejissor O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirilgan. Unda Muahmmadali Abduqunduzov, Shohida Ismoilova, Mahmud Ismoilov, Hojiakbar Komilov, Abdurayim Abduvahobov, Toxir Saidov, Behzod Muhammadkarimov, Farxod Abdullayevlar rol ijro etganlar. Bu dramaning sahna talqinida lingvotransformatsion jarayonlar ko'p kuzatilladi. Masalan: asar qahramonlaridan biri Zamonqul nutqida *“Hozir madaniyat sinfiy ekanligi haqida ko'p gapirilayapti.... Milliylik bir shakl bo'lgach...”* gapi *“Mana hozir milliylik haqida juda ko'p gapiryapmiz...Oldin milliylikni bir shaklga sovolaylik, ana undan keyin...”* tarzida o'zgartirilgan. Bu yerda madaniyat sinfiy ekanligi haqidagi g'oyat muhim xabar tushirilgan va uning o'rniga to'g'ridan to'g'ri milliylik bilan bog'liq kontekst kiritilgan. Natijada o'sha davr bilan bog'liq ijtimoiy, siyosiy kontekst asardan chiqarib tashlangan. Qolgan qismi esa og'zaki nutqqa xos unsurlar bilan boyitilgan. Cho'lponning javob nutqida Zamonqulning *“milliylikni bir shaklga sovolaylik”* gapiga javoban *“milliylik bu shakl emas, ”* gapini takrorlaydi. E'tibor qilinsa, pyesada *“milliylik bir shakl bo'lgach”* gapi bor Cho'lpon nutqida esa aynan shu gapga javob

bor. Zamonqul nutqining sahna talqinida mazkur gap o'zgartirilgan, natijada Cho'lponning "milliylik shakl emas" gapi mantiqan mos kelmagan.

Hofiz gapga aralashib "Musiqada qanday sinfiylik bor? Agar tanbur yig'lasa, dardi borning hammasi qo'shib yig'laydi! Bedard esa, boylar orasida ham kambag'al orasida ham topiladi..." deydi. Sinfiylik haqidagi masala aslida, Zamonqulning yuqoridagi nutqida boshlanishi kerak edi lekin, Zamonqul mazkur jumlaning tashlab ketishi natijasida Hofizning bu nutqidagi ko'tarilgan masala dabdurustdan, tasodifiy ko'tarilgandek taassurot uyg'otadi. Muallifning pyesadagi daqiqligiga aktyorlarning matnga loqaydligi natijasida putur yetgan.

Jarayonda kommunikativ bo'shliqni to'ldirish maqsadida og'zaki nutqqa xos ifodalar qo'llanilgan.

Ko'zoynak laqabli qahramonning: "O'zimizning madaniyatni, o'zimizning ruhimizni, jahonga ko'rsatsak! Shuning o'zi baland vatanparvarlikdir..." gapi "Kechirasizlar, o'zimizni madaniyatimizni jahonga tanitmog'liqni o'zi, haqiqiy vatanparvarlik emasmi, a?" tarzida o'zgartirilgan. Bunda gap og'zaki nutqqa xos unsurlar bilan boyitilgan natijada muloqot jarayoni jonli va samimiy chiqqan. Bu gapga javoban Tengdosh laqabli qahramon: asosiy matnda berilgan "Ammo jahon madaniyatini ham bilmog'imiz zarur..." deyishi o'rniga "Lekin, jahon madaniyatiniyam unutishimiz kerak emas!" tarzida luqma tashlaydi. Natijada bo'lishli gap, formal jihatdan bo'lishsiz gapga aylantirilgan. Bu ham intonatsiya orqali ta'kidni kuchaytirishga xizmat qilgan hamda bahsda g'olib chiqish istagini oshkora ifodalagan.

Cho'lpon bahs-munozaraga yakun yasash maqsadida pyesadagi replikasini faol transformatsiya bilan ijro qiladi. Cho'lpon: "Albatta! Albatta!.. O'zligimiz boyishi va ulkanlashmog'i uchun, albatta, jahon madaniyati hamisha ko'z oldimizda turmog'i kerak. O'zbekning ruhi dunyo madaniyatining eng yuksaklarda ohanglariga jo'r bo'lmog'i lozim." gapi "Albatta! Albatta!.. O'zbekning ruhi dunyo madaniyatining yuksak parda ohanglariga jo'r bo'lmog'i lozim. Bahslarni to'xtatamiz!" tarzida transformatsiya qilingan. Bitta gapning tushirilishini nafaol transformatsiya tarzida qabul qilish mumkin. Chunki undagi ma'no keyin keladigan gapda mavjud. "yuksak ohanglar" birikmasi orasiga "parda" musiqiy terminining kiritilishi nutqning aniqligiga xizmat qilgan. Va gap yakunida "Bahslarni to'xtatamiz" gapi oddiy suhbatning bahs-munozaraga aylanib borayotganiga ishora qiladi. Bu tarzda transformatsiyalar muloqot vaziyati bilan bog'liq bo'lib nafaol transformatsiya tarkibida o'rganiladi.

Lingvotransformatsion jarayonlar deyilganda til birliklarining muayyan kontekst talablari asosida o'zgarishi, yangidan shakllantirilishi yoki moslashtirish (adaptatsiya) jarayonlari tushuniladi. Bu jarayonda so'zlar, iboralar va grammatik tuzilmalar fonetik, morfologik, leksik-semantik, sintaksik va pragmatik jihatdan transformatsiyaga uchraydi. Lingvotransformatsiya so'zi *lingvistika* va *transformatsiya* so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan tilshunoslik termini sanaladi.

Transformatsiya deganda til birliklarining bir shakldan boshqa bir shaklga aylanishi tushuniladi. Bu jarayon quyidagi sabablarga ko'ra ro'y beradi: 1. Nutqni tomoshabinga tushunarli va ta'sirchan qilish uchun ham ma'lum bir asar tili kino yoki teatr tiliga moslashtiriladi. 2. Tarjima jarayonlarida muayyan bir tildagi asar boshqa bir tilga tarjima qilinganda tabiiy o'laroq farqlanishlar ro'y beradi. 3. Jamiyatdagi turli voqea-hodisalar ta'sirida ham tilda muayyan o'zgarishlar namoyon bo'ladi.

“Transformasiya ko'plab tadqiqot sohasida faol qo'llanayotgan atamalardan biri hisoblanadi. Mazkur atama u yoki bu unurning muayyan maqsad bilan o'zgarishga uchrashi, almashishi, qo'shilishi yoxud qisqarishi ma'nosini ifodash uchun qo'llaniladi. Tilshunoslikda keng ma'noda til birliklarining shakl va mazmun o'zgarishi sifatida tushuniladi. Bu holat tilning fonetik, leksik-semantik va grammatik tuzilmasida kuzatiladi. Davrga bog'liq ravishda yuz beradigan o'zgarishlar tilning ichki tarkibiy transformatsiyasi hisoblanadi.”⁵ Olim mazkur maqolasida lingvotransformatsiyaning tilshunoslik uchun ahamiyati haqida shunday yozadi “lingvotransformatsiya tilshunoslik uchun tilning tarixiy, strukturaviy, semantik va pragmatik o'zgarishlarini o'rganishda muhim vositadir. U tilning dinamik tabiatini tushunish, tillararo ta'sirlarni tahlil qilish, til o'qitish va zamonaviy texnologiyalarda tilni qayta ishlashda katta ahamiyatga ega soha sanaladi. O'zbek tili misolida bu jarayon tilning madaniy va ijtimoiy muhitdagi moslashuvini, shuningdek, uning global kontekstdagi o'rnini ochib beradi hamda universal grammatika qoidalarini tasavvur qilishga yordam beradi.”⁶

Keyingi o'n yillikdagi tadqiqotlar ichida kognitiv tilshunoslik bilan bog'liq atamalar tizimi shakllandi. Matn tadqiqida ham qiziq terminalogik tizm paydo bo'ldi va hali leksikografik jihatdan o'z yechimini topmadi. Masalan, matnning turli shakllarida namoyon bo'lishida undagi statik birliklar muayyan o'zgarishlarga yuz tutadi, ayniqsa, badiiy asarning sahnalashtirilishida yoki ekranlashtirilishida bu hodisa aniq ko'zga tashlanadi. Buning turli maqsadlari bor alabttta. Birgina dramatik asarning sahnaga ko'chirilishida kuzatilgan holatlar bu borada qilinishi kerak bo'lgan ko'p ishlar borligini ko'rsatadi. Masalan, til birliklarining o'zgarishi qanday maqsadlarda amalga oshishiga ko'ra alohida, Qaysi so'z turkumlari va til birliklarida kuzatilishiga ko'ra alohida tasniflanishi kerak. Bundan tashqari, o'zgarishlarning qay tarzda amalga oshishiga ko'ra ham maxsus tamoyillar ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, uslubga xos transformatsion holatlarning kuzatilishi ham alohida tasniflashni talab qiladi.

Tilshunos I.Qo'chqortoyev yozuvchi tomonidan qayta ishlangan asar variantlarini ham nutq generatsiyasining maxsus ko'rinishi sifatida tadqiq qilish lozimligini ta'kidlaydi “Nutq generatsiyasi nuqtai nazaridan (u yoki bu talantli

⁵ Yo`ldoshev M. “Badiiy tarjimada lisoniy transformatsiyaning o`ziga xos xususiyatlari” -Toshkent: O`zbek tili va adabiyoti jurnali, 2025-yil, 3-son, -B. 3-7.

⁶ Yo`ldoshev M. O`sha manba.

yo'zuvchining qo'lyozma ustida ishlashini nutq generatsiyasining maxsus ko'rinishi sifatida qarash mumkin) matn statik hodisa emas, balki dinamik hodisa sanaladi. Qo'lyozma ustida ishlash yoki asarni qayta nashrga tayyorlash jarayonida yo'zuvchi tomonidan butun matnga yoki uning muayyan qismlariga ma'lum o'zgarishlar kiritiladi. Bunday o'zgarishlar natijasida butun matnning yoki uning biror qismining o'ziga xos qo'shimcha nusxalari, variantlari yuzaga keladi.”⁷ Ko'rinadiki olim matnni static matn emas dinamik matn hisoblaydi. Bu matn tilshunosligi bilan bog'liq muhim qarashlardan biri hisoblanadi. Chunki matn nashr qilingandan keyin u “faoliyatini to'xtatgan static matnga aylanadi” uning dinamik matnga aylanishi sahnalashtirilish, ekranlashtirilish, ovozashtirilish kabi farqli holatlarga o'tish jarayoni bilan belgilanadi. I.Qo'chqortoyev matnni dinamik hodisa deb atar ekan buni to nashrgacha bo'lgan jarayon sifatida yoki qayta nashrlarda kiritiladigan o'zgarishlar bilan bog'laydi. Bizningcha matnning static yoki dinamik sifati nisbiy bo'ladi. Dramatik asarning sahnalashtirilishida muallif nutqi qahramonlar nutqiga singdiriladi ya'ni yangidan generatsiya qilinadi. Natijada muayyan o'zgarishlar yuz beradi. Bu holat lingvotransformatsion jarayonlar sifatida o'rganishni taqazo qiladi.

Umuman, transformatsion jarayonlar quyidagi sabablarga ko'ra ro'y beradi: har bir tilning rivojlanishi – yangi so'zlar paydo bo'lishi, eskisining o'zgarishi tilshunoslikdagi transformatsiya termini ostida o'rganiladi. Tarjimashunoslikda bunday jarayonlar alohida o'rganiladi. Yapon yo'zuvchisi Abe Koboning “Qumdagi xotin” romani tadqiqotchisi M.Rustamova tarjimalar tilidagi transformatsiya haqida shunday yozadi: “Tarjima bir qator transformatsiyalar zanjirini o'zida mujassam qiladi. Ayniqsa, badiiy tarjimadan lingvomadaniy kodlarning muvofiqlashtirish jarayonining o'zi muayyan transformatsiyalarni talab qiladi.”⁸ Darhaqiqat, tarjimalardagi transformatsiya lingvomadaniy jihatdan o'rganishni taqazo qiladi. Chunki tarjimada ikki xil madaniyat to'nash keladi, bu esa lingvomadaniy kodlarni yechish asosida hal qilinadi.

Tarjimashunos X.Hakimov tarjima muvofiqligini tarjima transformatsiyasi doirasida tadqiq qiladi. “Tarjima muvofiqligi turli leksik va grammatik transformatsiyalarga muhtojdir. Asliyat va tarjima birliklari o'rtasida bevosita aloqa bor bo'lib, birlamchi matndan qandaydir transformatsiyalar vositasida tarjima birliklarini hosil qilish mumkin. Tarjima transformatsiyalari deganda asliyat birliklaridan tegishli ma'noda tarjima birliklariga o'tishda qo'llaniladigan tarjima metodlari tushuniladi.”⁹ Olim ayni maqolasida L.Barxudarov nazariyasini to'rt turga o'lib bayon qiladi:

“1) joyni o'zgartirish;

⁷ Бу ҳақда қаранг: Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 61-63.

⁸ Rustamova M Abe Koboning “Qumdagi xotin” asari tarjimasining lingvopoetik xususiyatlari. filol.fan.b.Fd (PhD) diss, Toshkent 2026, 21- bet (133 bet)

⁹ Ҳақимов Ҳ.И. Миллий кадриятларни англатувчи қўшма сўзларни таржима қилиш усуллари. <http://samxorfil.uz/maqola/milliy-qadriyatlarini-anglatuvchi-qoshma-sozlarni-tarjima-qilish-usullari>

- 2) almashtirish;
- 3) qo'shish;
- 4) tushirib qoldirish.”¹⁰

Tasnifdan ko'rinadiki so'z tartibining o'zgarishi, gapga matnda mavjud bo'lmagan so'zlarning qo'shilishi ayrim parchalarning tushirib qoldirilishi va epizodlarning almashtirilishi ham transformatsion jarayonlar hisoblanadi. Bu esa, tabiiy o'laroq, tilshunoslikning tadqiqot obyektiga kirishi uchun asos bo'ladi. Ayni maqolada takidlanishicha “V.Komissarov, L.Barxudarov tasniflagan tarjima transformatsiyalarini umumiy ravishda uchga – leksik, grammatik va leksik-grammatik turlarga bo'ladi. Tarjima jarayonida qo'llaniladigan leksik transformatsiyalarning asosiy turlari quyidagi tarjima usullarini o'z ichiga oladi: 1) Transkripsiya va transliteratsiya usuli; 2) Kalkalash usul; 3) Leksik – semantik almashinuv (konkretizatsiya, generalizatsiya, modulyatsiya) usuli. Grammatik transformatsiyalarda qo'llaniladigan tarjima usullari: 1) Sintaktik o'xshatish (so'zma-so'z tarjima) usuli; 2) Jumla tuzilishini o'zgartirish (jumlalani bo'lish yoki birlashtirish); 3) Grammatik almashtirishlar (so'z shakli, nutq bo'lagi yoki gap bo'laklarini almashtirish). Kompleks leksik-grammatik transformatsiyalarga a) antonim tarjima usuli; b) eksplikatsiya (bayoniy tarjima) usuli; v) kompensatsiya usuli kiradi.”¹¹

Tarjimashunos B.Shamsiyeva transformatsion jarayonlarni quyidagicha izohlaydi: “Transformatsion jarayonlar termini bir til doirasida va tillararo amaliyotlar uchun ishlatiladi. Bir til doirasida ishlatilganda, ma'no ko'chishlari, ma'no siljishlari, kengayish, torayish kabi holatlar tushuniladi. Tillararo amaliyotda esa tarjimada munosib ekvivalentni topishga urinish harakatlari tushuniladi.”¹² Muayyan millat tiliga oid asar o'sha tilda namoyon bo'ladigan madaniyatni o'zida aks ettiradi. Shu sababli asar tarjimasida kuzatiladigannhar qanday o'zgarish lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan baholanishi zarur.

Badiiy asarning ekran yoki sahnaga ko'chirilishida nutqiy adaptatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Statik matnning dinamik matnga aylanishida so'zning fonetik qobig'i, gapdagi o'rni kabilar muayyan o'zgarishlarga yuz tutadi. Bu holat tilning nutqdagi qo'llanishini o'rganuvchi lingvopragmatika sohasi uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Chunki nutqiy aktlarda tilning muayyan maqsadga xoslanishi nazarda tutiladi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan har bir so'z kod hisoblanadi Lingvomadaniyatshunoslik ushbu termini turli tadqiqotlar orqali faollashtirdi. Aslida tilshunoslikning barcha sohalarida bu termin o'rganilishi kerak. Xo'sh, lingvotransformatsion jarayonlarda kod tushunchasi qanday anglashiladi?

¹⁰ Hakimov.H.I. O'sha manba.

¹¹ Hakimov X.I O'sha manba.

¹² Шамсиева Б.Б. Трансфер – тиллар воситачиси сифатида / Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадрятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд-Шанхай, 2021.– Б. 487.

Bunda o'zgartirilgan matndagi muayyan kodning sahna asaridagi o'zgarishi yoki tushib qolishining sabablari lingvomadaniyatshunoslik tamoyillari asosida o'rganilishi mumkin. O'zgartirilgan yoki tushirilgan birlik lingvotransformatsion kod hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki matnda mavjud bo'lmagan "bolaginam" so'zining sahnada ijro etilgan asarda kuzatilishi bu lingvotransformatsion kod hisoblanadi. Chunki bu lingvotransformatsion kod sahnada nima sababdan ijro etildi? Uni kim qo'shdi? Nega qo'shdi? Shuni aniqlash orqali lingvotransformatsion kod ning funksiyasi izohlanadi. Badiiy asarda mavjud bo'lgan muayyan birlikning sahnada ijro etilmasligi ham ma'lum bir lingvotransformatsion kod hisoblanadi.

Asosiy matnda mavjud bo'lgan muayyan birlikning sahnalashtirish jarayonida tushirilishi, tomoshabin nigohidan yashirib qo'yilishi ham implitsit kod hisoblanadi. Ijrodagi implitsitlik tadqiqi ham kod tushunchasining mohiyatini ochib beradi. "Implitsitli tuzilma to'g'ridan to'g'ri aniq lisoniy vositalar orqali ifodalanmasdan, balki eksplitsit ifodalangan semantik elementlar, ularning o'zaro nisbati va o'zaro ta'siridan anglab olinadi."¹³

Eksplitsit kod tushunchasi ham borki, asosiy matnda va ijroda mavjud bo'lgan, ma'nosi oshkora ifodalangan birliklar uchun ishlatiladi. Sahnaga olib chiqilayotgan asarda muayyan birliklar asar bilan bir xil bo'lsa ham obraz darajasiga ko'tarilishi mumkin bo'ladi. Masalan: Dezdemona antroponimi orqali murojaat Abror Hidoyatov ijrosida yuksak obraz darajasiga ko'tarilgan va undan keyingi barcha ijrochilar unga taqlid qilishga harakat qilganlar.

Lingvotransformatsion jarayonlar tilning sotsiolingvistik tadqiqida ham kuzatiladi. Ma'lumki, jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarda milliy tilning muayyan o'zgarishlarga yuz tutishi kuzatiladi. Ayniqsa, aktyorning muayyan hududga mansubligi uning tilida ham aks etadi. Adabiy tilda yozilgan drama viloyat teatrlarida sahnalashtirilganda ayrim so'zlarning shevaga xosligi sezilarli darajada farqlanadi. Masalan: *Oltmish – olmish tarzida, ona- ena tarzida, bobo – bovo tarzida, foiz – poiz, somsa - sambo 'sa, aka – oka, sho 'rva – sho 'rbo* shaklida va h.k o'zgarishlar kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chomsky, N.A. Transformational Approach to Syntax Transformational approach to syntax / N.A. Chomsky. –Texas, –1958. – pp: 124–158.
2. Montserrat Martínez Vázquez M. Complementos predicativos en inglés y en español/ Revista Alicantina de Estudios Ingleses, 1990. n. 3, pp. 89–96.
3. Апресян Ю.Д. Идеи и методы современной структурной лингвистики (краткий очерк) / Ю.Д. Апресян. М.: Просвещение, 1966. 305с.
4. Власова Ю.Н. Синонимия синтаксических конструкций в современном английском языке / Ю.Н. Власова. Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1981. 159 с.

¹³ Шамахмудова А. Замонавий тилшуносликда билвоситалик ва имплицитлик тушунчалари. Хорижий филология. – № 1. 2017. – Б. 68-70.

5. Гнатюк О.А. К вопросу о разграничении понятий: «синонимия», «вариативность», «параллелизм» (теоретический обзор) // Филологический аспект: международный научно-практический журнал. Нижний Новгород: Научно-издательский центр «Открытое знание», 2024. №03 (107). С. 46–53. Режим доступа: [хттпс://ссипресс.ру/уpload/пхилологй/фа032024-1.пдф](https://ssipress.ru/upload/pxhologiy/fa032024-1.pdf) (кўрилди 18.01.2025).

6. Пешковский А.М., “Русский синтаксис в научном освещении”, 6 изд., М., 1938

7. Подкорытова А.В., Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализации синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

8. Сорокина Т.С. Функционально-когнитивные основания теории грамматической синонимии в английском языке: Дисс. док. филол. наук. М.: 1981. 186с.

9. Шахматов.А.А. Из трудов А.А.Шахматова по современному русскому языку. – М.: Учпедгиз, 1951. – С.37

10. Яковлева Е.А. Конверсия как способ реализatsii синтаксической синонимии на разных этапах изучения русского языка как иностранного // Молодежный вестник ИрГТУ. 2022. Т. 12, № 4. С. 836-839.

11. Yuldashev M., Yuldasheva Z. The Problem of Text in Linguistics //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 18. – S. 100-108.

12. Yuldashev M. Badiiy matnda qahramonlar ruhiyati va ularning lingvopoetik xususiyatlari. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali. 2024/1. -B. 57-63.